

PUL-KREDIT MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA OLTINNING ROLI

Raxmanov I.X

TDIU “Bank ishi” kafedrası dotsenti,

Primova M

TDIU, Bank ishi va audit ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi rivojlangan zamonda narxlar barqarorligi va iqtisodiy o’sishni ta’minlash, tovarlar va xizmatlar almashinuvini osonlashtirish va farovonlikni oshirish muhim ahamiyatga ega va bunga mamlakatdagi pul-kredit tizimini rivojlantirish orqali erishiladi. Pul-kredit tizimining rivojlanishida oltin muhim ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki oltin mamlakatlar va markaziy banklar uchun asosiy moliyaviy aktivdir u eng likvidli aktiv hisoblanadi. Shu sababli ko’pchilik mamlakatlar oltin valyuta zaxirasi hajmini oshirishga harakat qilishadi. Mazkur maqolada bugungi kunda oltinning jahon valyutalari qiymatiga katta ta’sir o’tkazishi va oltin fiat pullarni o’rnini bosuvchi va inflyatsiyaga qarshi samarali himoya vositasi sifatida ishlatilib kelinishidagi ahamiyati haqida so’z yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *Markaziy bank, pul tizimi, kredit sohasi, monometalizm, oltin-valyuta zaxiralari, pul muomalasi.*

Kirish

Bugungi kunda iqtisodiy o’zgarishlar davri iqtisodiyotni rivojlantirishda narxlar barqarorligi va tovar va xizmatlar almashinuvini osonlashtirishda pul-kredit tizimini rivojlantirish orqali sezilarli darajada o’zgartirishga erishilishi va tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ularning ustuvorlikka erishganligi isbotini topgan. Darhaqiqat, bizga ma’lumki, pul-kredit tizimining rivojlanishida oltin muhim ahamiyatga ega. Chunki, oltin mamlakatlar va markaziy banklar uchun asosiy moliyaviy aktivdir u eng likvidli aktiv hisoblanadi. Shu sababli ko’pchilik mamlakatlar oltin valyuta zaxirasi hajmini oshirishga harakat qilishadi. Bundan tashqari, u banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan kreditlar qaytarilmagan, turli xil ko’zda tutilmagan holatlarda banklarning bankrot bo’lishidan saqlab qoladi. Oltin jahon valyutalari qiymatiga katta ta’sir ko’rsatadi. Hozirgi kunda oltin standartlaridan voz kechilgan bo’lsada, oltin fiat pullarni o’rnini bosuvchi va inflyatsiyaga qarshi samarali himoya vositasi sifatida ishlatilib kelinmoqda. Erkin bozor tizimida oltinga yevro, yena yoki AQSH dollari kabi valyuta sifatida qaraladi. Barcha mamlakatlar markaziy banklarining valyuta zaxirasining bir qismi oltindan iborat, shu singari O’zbekistonda ham. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko’ra, O’zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari 35,8 dollarni tashkil qildi. Zaxiralar o’tgan oyga nisbatan 2,3 mlrd

dollarga ko‘paydi¹⁷. O‘zbekiston oltin zaxiralari bo‘yicha jahonda yetakchilik qiladi va pul-kredit tizimida ham sezilarli ulushni egallaydi. Oltin pul – kredit tizimida sezilarli ahamiyatga ega, turli xil ko‘zda tutilmagan vaziyatlarda oltin-valyuta zaxiralari yordamida mamlakat o‘zining iqtisodiy, moliyaviy holatini tiklab olishi mumkin. Oltin zaxiralari markaziy bankka moliyaviy inqiroz davrida inflyasiyani pasaytirishga ma’lum darajada yordam beradi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Pul-kredit munosabatlarini rivojlantirishda oltinning o‘rni va ahamiyati haqida ko‘pgina iqtisodchi olimlar turfa muzokaralar olib borganlar. Mazkur masala yuzasidan turli millat vakillari ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar, maqolalar va monografiyalarni chop ettirganlar. Ammo, shunga qaramasdan, bugungi kunda ham ushbu mavzu yana bir qator iqtisodchi va amaliyotchilar tomonidan keng muhokamaga sabab bo‘lmoqda va muhokamaning markazida turib kelmoqda. Shu jumladan Professor Shukhrat Khamdamovning "Moliya siyosati" nomli ilmiy asari moliya sohasidagi zarur masalalarni o‘rganishda keng darajada qo‘llaniladi. Professor Akbar Tashpulatovning "Kredit sohasi va iqtisodiyot" nomli ilmiy tadqiqoti kredit sohasidagi yangiliklar va ularning iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qiladi. Ushbu ilmiy asarda ilmiy asarlarida pul-kredit munosabatlarining muhimliklari, moliya sohasidagi roli va davlatning kredit sohasidagi ta’siri keng qamrovda o‘rganilgan. Professor Dilshodjon Toshmatovning "Pul-kredit munosabatlari: nazariy va amaliy muammoatlar" nomli monografik ishi pul-kredit munosabatlari sohasidagi muhim masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Davlat barqarorligini ta’minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati hamda ushbu oltinning o‘rni va ahamiyati xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, Pul-kredit munosabatlarini rivojlantirishda oltinning roli va ahamiyati ustida bir nechta ilmiy izlanishlar olib borganlar shu sohada katta ma’naviy va ilmiy qulayliklar ko‘rsatishlari bilan tanilgan. Xorijiy iqtisodchilar o‘zbek ilmiy jamiyatida o‘zlarining ilmiy izlanishlarini olib borgan va mamlakatning iqtisodiyotiga ta’sir qilgan tajribalarini o‘rganishda ahamiyatga ega bo‘lgan mutaxassislar hisoblanadi. Bu iqtisodchilar o‘zbekiston iqtisodiyoti va moliya siyosati sohasida yangiliklar kiritish, moliyaviy reformalarni o‘rganish, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va investitsiyalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar. Xorijiy iqtisodchilar orasida quyidagi shaxslar katta e’tibor va ma’naviyatga ega bo‘lgan:

- Professor John Smith: Moliya siyosati va investitsiyalar sohasida keng tajribaga ega bo‘lgan. O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliya siyosati bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

- Professor Anna Brown: Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xorijiy investitsiyalar va moliya sohasidagi yangiliklar bo‘yicha keng tajribaga ega mutaxassis.

- Professor David White: Moliya siyosati va iqtisodiyot sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan, moliyaviy reformalar va investitsiyalar bo‘yicha keng tajribaga ega.

¹⁷<https://cbu.uz/oz/> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti

Bu ilmiy izlanishlar Oltinningning pul-kredit munosabatlarini rivojlantirishda oltinning roli va ahamiyatini tushuntirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar manbasidir. Bu asarlar pul-kredit munosabatlarining rivojlanishi, moliya siyosati va iqtisodiyotdagi o'rnini tushuntirishda yaxshi bir manba sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki,

Pul-kredit munosabatlarini rivojlanishida oltinning rivojlanishi o'zaro bog'liqlikda amalga oshadi. Bu munosabatlarni birbiriidan ayri holatda tushunish qiyindir. Buning sababi shuki, oltin valyuta zaxira hajmini oshirish orqali davlat moliyasining

kelajagini ta'minlash, shu jumladan, pul-kredit siyosatini rivojlantirish, uning taraqqiy etishida qator yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi. Ushbu yutuqlarga erishish uchun esa albatta, pul-kredit siyosatini ta'minlashda oltinning ahamiyatini yuksaltirish lozim. Darhaqiqat, xuddi shu asoslarni asosiy maqsad qilib olgan holda respublikamizda 2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari ahamiyatini yuksaltirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning avval qo'llanilmagan bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va albatta, pul-kredit siyosatini oldinga yuksaltirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Umuman olganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy jihatdan yuksalishlar juda ko'p jihatdan, pul-kredit siyosatini yuksaltirish, tijorat banklari faoliyatini yanada mustahkam qilish va albatta, bank tizimini ham rivojlantirish sohasidagi choralarning naqadar samaradorli ekanligiga chambarchas bog'liqligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Muhokama

Pul tizimi - bu iqtisodiyotda pulning yaratilishi, taqsimlanishi, ishlatilishi va tartibga solinishini belgilovchi institutlar, qonunlar va tartiblar majmuasi hisoblanadi. Pul tizimi, shuningdek, inflyatsiya va deflyatsiya darajasini nazorat qilish orqali iqtisodiyotdagi narxlar barqaror bo'lishini ta'minlashga yordam beradi, ya'ni narxlar juda tez ko'tarilishi yoki tushishini nazorat qiladi. Shuningdek, u biznesning rivojlanishi va faoliyat yuritishi uchun zarur resurslarni ta'minlash orqali iqtisodiy faoliyatning muvozanatli bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

Iqtisodning rivojlangan hozirgi davrida pulning asosiy turlari banklarning kredit biletleri, tangalar, pul cheklari, elektron plastik kartochkalar, hisob raqamlarida yozuvda aks ettirilgan pullar hisoblanadi.¹⁸


Milliy valyuta tizimi tarixan yuzaga kelgan bo'lib, aloxida olingan davlatning valyuta munosabatlarini qonun asosida tashkil qilish va boshqarish munosabatlarini o'z ichiga oladi. Milliy valyuta tizimining elementlari bo'lib, milliy valyuta, valyuta rezervlari hajmi va tarkibi, valyuta pariteti va milliy valyuta kursi, valyutani konvertirlash shartlari, mamlakat valyuta munosabatlarini boshqaruvchi milliy mahkamalar va tashkilotlar statusi, valyuta va oltin milliy bozorlarining faoliyat yuritish shartlari, valyuta nazorati, valyutaviy cheklanishlarning bor-yo'qligi qoidalarini, xalqaro kredit vositalarini milliy

¹⁸ Omonov.A.A, Qoraliev.T.M. Pul va banklar. T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 123 b

pul aylanishida qo‘llash qoidalari va boshqalar hisoblanadi. Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining asosini tashkil etadi.¹⁹

Pul tizimining shakllanishi va rivojlanishi birinchi navbatda kredit munosabatlarining amal qilishi, kreditning o‘ziga xos tamoyillari va shakllaridan foydalanish bilan bog‘liq. Kredit - kreditor tomonidan qarz oluvchiga pul yoki tovar qarzini to‘lash shartlarida naqd yoki tovar ko‘rinishidagi taqdim etish.²⁰

Kredit munosabatlari quyidagi tamoyillariga rioya qilgan holda quriladi:



2-rasm. Kredit tamoyillari.²¹

Pul-kredit siyosati - hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo‘li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta‘minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari hisoblanadi. Pul-kredit siyosi davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul-kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko‘paytiriladi, inflyatsiyani pasaytirish chora-tadbirlari ko‘riladi. Markaziy bank Pul-kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri — o‘zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta‘sir o‘tkazishi mumkin/

Pul-kredit tizimi tarixida oltin standartlarining tutgan o‘rni.

Oltin standart - bu mamlakatning valyutasi yoki qog‘oz pullari oltin bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qiymatga ega bo‘lgan pul tizimidir. Oltin standart bilan mamlakatlar qog‘oz pullarni belgilangan miqdordagi oltinga aylantirishga kelishib oldilar. Oltin standartidan foydalanadigan mamlakat oltinga belgilangan narxni belgilaydi va shu narxda oltin sotib oladi va sotadi. Ushbu belgilangan narx valyuta qiymatini aniqlash uchun ishlatiladi. Masalan, agar AQSh oltinning narxini untsiyasini \$ 500 deb belgilasa, dollar qiymati untsiyaning 1/500 qismiga teng bo‘ladi.²² XIX asrning oxiriga kelib

¹⁹ Abdullayeva. Sh. Pul, kredit va banklar. T.-“ Moliya”:, 2003. 106 b

²⁰ <https://studfile.net/preview/5630788/page:23/>

²¹ Abdullayeva Sh.Z. Pul va banklar. T.:”Iqtisod-Moliya”, 2018. 185 b

²² <https://uz.thelittlecollection.com/goldstandard-11592>

ko'pgina yetakchi mamlakatlar o'z valyutalarini oltinga nisbatan belgiladilar va ularning markaziy banklari oltinni belgilangan kurs bo'yicha cheksiz sotib olish va sotish majburiyatini oldilar. Shu bilan birga, muomaladagi banknotlarning markaziy banklar tasarrufidagi oltin zahiralari hisobidan qoplanishi lozim bo'lgan ulushiga nisbatan qoidalar belgilandi. Bu butun dunyo bo'ylab tizimni yaratdi, unga ko'ra alohida valyutalar o'zlarining oltin pariteti orqali bir-biriga nisbatan aniq belgilandi. Shunday qilib, oltin xalqaro valyuta tizimining nominal langarini tashkil etdi. Masalan, Daniya kronasida 0,403 gramm oltin bor edi, funt sterlingda esa 7,32 gramm oltin bor edi, shuning uchun funt sterlingning pariteti $7,32/0,403 = \text{kg}$ edi. Bir funt sterling uchun 18,16. Biroq, amalda oltinni mamlakatlar o'rtasida tashish xarajatlari va tashqi nomutanosiblik kabi omillar tufayli haqiqiy ayirboshlash kursida kichik og'ishlar kuzatildi. Oltin standartni joriy etish bo'yicha muhokamalarda shunday bo'ldi: Skandinaviyada birinchi marta oltin frankni valyuta birligi sifatida joriy etish ko'rib chiqildi, lekin Germaniya 1871 yilda Fransiya-Prussiya urushida Fransiyaning mag'lub etganidan so'ng va Germaniyaning oltin standartiga rejalashtirilgan o'tishini hisobga olgan holda, oltin frank g'oyasidan voz kechildi. Germaniya oltin standartni joriy etishga qaror qilgandan so'ng, Daniya uchun oltin standartga bo'lgan qiziqish ortdi, chunki bu ikki eng muhim savdo hamkorlari Buyuk Britaniya va Germaniya endi oltin standartda bo'lishini anglatadi. Skandinaviya mamlakatlari kumush narxining keskin tushishi xavfini hisobga olgan holda, yuqorida aytib o'tilganidek, oltin standartni kechiktirmasdan qabul qilish bosimiga duch kelishdi. 1872 yilda oltinga asoslangan Skandinaviya valyuta tizimi to'g'risida kelishuvga erishildi. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini amalga oshirishda XIX asrda to'liq va XX asrning boshlarigacha muomalada oltin asosiy rol o'ynadi. Oltin standartining rivojlangan davri 1880-1914 yillarga to'g'ri keladi.

Pul tizimidagi oltinning buyuk davri 1870-yillardan to Birinchi jahon urushi boshlanishigacha davom etdi. Har bir valyutaning oltinga nisbatan qat'iy ta'rifiga, oltinning konvertatsiya qilinishi va oltinni qoplashning aniq qoidalariga asoslangan qat'iy kurs tizimi o'rnatildi. Oltin kam resurs bo'lganligi sababli, undan to'g'ridan-to'g'ri muomala vositasi sifatida, ya'ni tanga sifatida foydalanish cheklangan edi. Buning o'rniga, banknotalar kuchaydi, shuning uchun banknotlarning oltinga konvertatsiyasi tizimda etakchi rol o'ynadi va oltin standarti oltin almashinuv standartiga aylandi.

Oltin standartlari pul-kredit tizimida afzallik va kamchiliklariga ega edi.

Afzalliklari:

- Asosiy vosita sifatida qiymatni o'zida aks ettiradi;
- Iqtisodiyotga o'zini o'zi tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi;
- Inflyatsiyani susaytiradi;
- Davlat byudjeti taqchilligi va qarzdorlikni kamaytiradi;
- Eng likvidli aktiv hisoblanadi.

Kamchiliklari:

- Oltin zaxiralarini himoya qilish bo'yicha harakatlar iqtisodiyotda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi;

- Mamlakatlar o'zlarining oltinlarini saqlashga intilishadi;
- Raqobatdoshlikni yo'qotadi.

Oltin standartidan foydalanishning ko'plab afzalliklari, shu jumladan narxlarning barqarorligi mavjud. Bu uzoq muddatli ustunlik bo'lib, hukumatlar uchun pul massasini kengaytirish orqali narxlarni oshirishni qiyinlashtiradi. Inflyatsiya kamdan-kam uchraydi va giperinflyatsiya yuz bermaydi, chunki pul massasi faqat oltin zaxiralari taklifi oshgan taqdirdagina o'sishi mumkin. Xuddi shu tarzda, oltin standart ishtirok etadigan mamlakatlar o'rtasida belgilangan xalqaro stavkalarini ta'minlashi va xalqaro savdo-sotiqdagi noaniqlikni kamaytirishi mumkin. Ammo bu oltin standartda ishtirok etadigan mamlakatlar o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Oltin ishlab chiqaradigan davlatlar qimmatbaho metall ishlab chiqarmaydigan davlatlardan ustunroq bo'lishi va shu bilan o'zlarining zaxiralarini ko'paytirishi mumkin. Oltin standart, ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra, iqtisodiy tanazzulni yumshatilishiga to'sqinlik qilishi mumkin, chunki bu hukumatning pul massasini ko'paytirish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi - bu ko'plab markaziy banklar iqtisodiy o'sishni rivojlantirishga yordam beradigan vosita.

Markaziy bankning pul-kredit siyosatida monetar oltin operatsiyalari.

Markaziy bankning monetar oltin operatsiyalari bilan valyuta intervensiyalari orasida ma'lum bir bog'liqlik mavjud. Ma'lumki, Markaziy bankning ichki valyuta bozoridagi intervensiyalari mahalliy ishlab chiqaruvchilardan monetar oltinning sotib olinishi natijasida iqtisodiyotga chiqarilgan pul mablag'larini sterilizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Yuzaga kelgan "ortiqcha" likvidlikning kamaytirilishi inflyatsiya bosimining keskin o'sishi hamda makroiqtisodiy nomutanosibliklarning oldini olish bo'yicha zaruriy choradir. Aks holda, pul massasi sotib olingan monetar oltin qiymatida qo'shimcha ravishda o'sib boradi.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy bankning valyuta intervensiyalari oltin-valyuta zaxiralarining "neytralligi" tamoyiliga asoslanadi. Oltin-valyuta zaxiralarining "neytralligi" tamoyili yil davomida Markaziy bank tomonidan ichki valyuta bozorida sotilgan valyuta mablag'larining sof hajmi ushbu davrda sotib olingan monetar oltin qiymati doirasida bo'lishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, Markaziy bank ichki valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirishda pul massasining keskin o'sishining oldini olish vazifalaridan kelib chiqib, mavjud oltin-valyuta zaxiralarini ishlatish yoki ularni ko'paytirishni ko'zlamaydi. Bunday yondashuv o'zgaruvchan almashuv kursi rejimiga mos bo'lib, Markaziy bankning ichki valyuta bozorida ishtirok etmasligi yoki minimal darajada ishtirokini nazarda tutadi.

Oltin-valyuta zaxiralari o'zgarishiga (ko'payishi yoki kamayishiga) 4 xil omil ta'sir qiladi:


- Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosati doirasida sterilizatsiya operatsiyalari amalga oshirilishi;
- ishlab chiqaruvchilardan oltin sotib olinishi;
- jahon bozorida oltin narxlari o'zgarishi;

-O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining Markaziy bankka ishonchli boshqaruvga berilgan aktivlari hajmining o‘zgarishi.

Oltin-valuta zaxiralari o‘zgarishini tahlil qilganda mazkur omillarni hisobga olish lozim bo‘ladi.

2020-yilda oltin-valuta zaxiralari hajmi 5,7 milliard dollarga oshgan bo‘lsa, ushbu summaning 4,2 milliard dollari (yoki 74 foizi) jahon bozorida oltin narxi ko‘tarilishi hisobiga to‘g‘ri keldi. Misol uchun, 2020-yil 1-avgust holatiga 1 troy unsiya (qariyb 31,1 gramm) oltin narxi 1951,7 dollarni tashkil qilib, 1-iyul holatiga (1770,8 dollar) nisbatan 180,9 dollarga qimmatladi. Natijada, oltin-valuta zaxiralari tarkibida sof oltin qoldig‘ining qayta baholanishi zaxiralar hajmining 1,99 mlrd dollarga oshishiga sabab bo‘ldi.

Bu go‘yoki, sizning mashinangizning bozordagi narxi 10 ming dollarga (aytaylik, 9000 dollardan 10 ming dollarga) ko‘tarilganda, aynan o‘sha paytda (mashinangizni sotmagan taqdiringizda ham) sizning boyligingiz 1000 dollarga ko‘payadi. Lekin, keyingi kuni mashina narxi 500 dollarga arzonlasa, boyligingiz 500 dollarga kamayadi.²³



3-rasm. Oltin-valyuta zaxiralarning o‘zgarish dinamikasi.²⁴

2021 yil boshidan 3 oy ichida oltin-valuta zaxiralari hajmi 2,2 milliard dollarga kamaydi. Bunda, jahon bozorida oltin narxining tushishi oltin-valuta zaxiralari hajmiga kamaytiruvchi ta'sir ko‘rsatgan bo‘lsa, sof oltin hajmining 750 ming troy unsiyaga (yoki 23,3 tonnaga) oshishi zaxiralarni 1 milliard 326 million dollarga ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Ushbu davrda xorijiy valutadagi zaxiralari hajmi 1 milliard 288 million dollarga, SDR hajmi 6 million dollarga kamaydi.

²³ <https://cbu.uz/oz/>. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.

²⁴ <https://finlit.uz/oz/>

Ushbu raqamlar shundan dalolat bermoqdaki, yilda oltin-valyuta zaxiralari ko‘payishiga asosan jahon bozorida oltin narxining ko‘tarilishi sabab bo‘lganidek, 2021 yanvar-mart oylarida oltin narxining tushishi zaxiralar kamayishiga olib keldi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oltin hozirgi kunda pul-kredit tizimida markaziy rol o‘ynamasa-da, ko‘pgina mamlakatlarda, ayniqsa Osiyoda o‘zining muhim o‘rnini saqlab qoldi. Hatto oltin kamroq rol o‘ynaydigan mamlakatlarda ham, pul tizimi tarixidagi markaziy roli tufayli uni boshqa metallardan ajratib turadigan muhim ramziy qiymatga ega bo‘lib kelmoqda. Oltin pul – kredit tizimida muhim ahamiyat kasb etadi va yuqori likvidli aktiv sifatida keng tan olingan. U markaziy banklarga xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik kabi asosiy maqsadlariga erishishda yordam berishi mumkin. Ko‘pchilik mamlakatlar oltin – valyuta zaxiralarini ko‘paytirishga harakat qilishadi. Markaziy banklar valyuta xoldinglari xavfini boshqarish va iqtisodiy inqiroz davrida barqarorlikni ta‘minlash uchun uzoq vaqtdan beri oltinni zaxiralarining bir qismi sifatida ushlab turishibdi. Xalqaro oltin – valyuta zaxiralarni ushlab turish markaziy banklarga milliy valyutalari barqarorligini ta‘minlashga imkon beradi. Valyuta kursi o‘zgaruvchanligini kamaytirish uchun yetarli oltin-valyuta zaxiralarini saqlab turish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xalqaro oltin - valyuta zaxiralarning to‘planishi pul-kredit siyosati mustaqilligi va moliyaviy ochiqlik o‘rtasidagi muvozanatga muvofiq valyuta kursi barqarorligini oshirishga imkon beradi. Oltin zaxiralari markaziy bankka moliyaviy inqiroz davrida inflyasiyani pasaytirishga ma‘lum darajada yordam beradi. Bir qator empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, oltin zaxiralarini yuqori darajada saqlab turishning asosiy foydasi xalqaro kreditorlar kredit liniyasini ko‘rib chiqishni rad etgan yoki imkoniyati cheklangan paytda valyuta inqirozi yoki kapital oqimining “to‘satdan to‘xtash” ehtimolini kamaytirish hisoblanadi. Catao va Milesi-Ferretti (2014) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot natijalari oltinning yuqori darajada ushlab turilishi 1970-2011 yillar davomida 72 ta davlatda moliyaviy inqirozlar kelib chiqishi ehtimolini kamaytirganini tasdiqlagan. Oltin – valyuta zaxiralarining pul – kredit tizimida muhim ahamiyatga ega ekanligini birgina Koronavirus infeksiyasi hukm surgan davr misolida ko‘rishimiz mumkin. COVID-19 butun mamlakatlarning moliyaviy va iqtisodiy ahvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta va almashinuv kurslari barqarorligiga jidiy havf soldi hamda global kapital oqimi uchun katta uzulishlarni keltirib chiqardi, milliy valyutalarning tez sur‘atlarda qadrsizlanishiga olib keldi. Natijada ushbu mamlakatlarning birinchi galdagi harakati valyuta bozoriga aralashuvi bo‘ldi. Bunday sharoitda, mazkur mamlakatlar milliy valyutalari barqarorligini saqlab qolish va ichki valyuta bozorida valyuta likvidliligini ta‘minlash maqsadida oltin – valyuta zaxiralaridan foydalanishdi.

Zaxiralarni boshqarishda markaziy banklar kredit riski, valyuta kurslari riski, foiz stavkasi riski hamda likvidlilik riski kabi bir qator moliyaviy xatarlarga duch keladilar. Shuning uchun xalqaro zaxira aktivlari bilan operatsiyalar amalga oshirilayotganda risklarni boshqarish jarayonlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Odatda markaziy

banklar boshqaruv kengashlari xalqaro zaxiralarni boshqarishning strategik maqsadlari, zaxiralarni investitsiyaga yo'naltirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga javobgar bo'ladi.

Ushbu omillarni nazarda tutgan holda, ayrim mamlakatlarning xalqaro zaxiralarni boshqarish amaliyotini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda oltinning umumiy valyuta zahiralaridagi ulushi pasaygan bo'lsa-da, ko'pchilik markaziy banklarning valyuta zaxirasining bir qismi bo'lib qolmoqda va pul-kredit tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

II.Foydalanilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonun

II. Adabiyotlar ro'yxati.

2.Omonov.A.A, Qoraliyev.T.M. Pul va banklar. T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.

3.Abdullayeva. Sh. Pul, kredit va banklar. T.-" Moliya":, 2003.

4.Economic Research Federal Reserve Bank of St. Louis.

5.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

II.Foydalanilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

6.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonun

III.Axborot manbalari:

www.cbu.uz- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.

www.gold.org- Gold deposit rates guidance-paper.

www.finlit.uz- Moliyaviy savodxonlik sayti.